

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**CHORIYEVA MADINA ALIYEVNA**

**ABULQOSIM FIRDAVSIYNING “SHOHNOMA” ASARIDA  
FALSAFIY TA’LIMOTLAR TAHLILI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**UDK: 1:821.22Firdavsiy7Shoxnoma.06**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Choriyeva Madina Aliyevna**

Abulqosim Firdavsiyning «Shoxnoma» asaridagi falsafiy ta'limotlar tahlili ..... 5

**Чориева Мадина Алиевна**

Анализ философских учений в произведении Абулькасыма Фирдавси  
«Шахнаме» ..... 23

**Choriyeva Madina Aliyevna**

Analysis of philosophical teachings in the work of Abulkasym Firdavsi  
«Shakhnama» ..... 43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**CHORIYEVA MADINA ALIYEVNA**

**ABULQOSIM FIRDAVSIYNING “SHOHNOMA” ASARIDA  
FALSAFIY TA’LIMOTLAR TAHLILI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal808 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Huseynova Abera Amanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarova Nigora Olimovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Maxmudova Guli Tilabovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «27» may soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (312 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «15» May kuni tarqatildi.  
(2023 yil «15» may dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Navro'zova G. N.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A. Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

*SXO*

**Salomova H. Yu.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda Sharq Uygʻonish davri mutafakkirlarining ijtimoiy, antropologik va axloqiy merosini oʻrganishning ahamiyati bugungi jamiyatda falsafiy tadqiqotlar rivojining amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqib, falsafiy va axloqiy-estetik tafakkur tarixini tizimli va izchil oʻrganish, jamiyatda hukm surayotgan maʼnaviy boʻshliqni toʻldirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ajdodlarning falsafiy merosini oʻrganish jamiyatda yoshlarning maʼnaviy madaniyatini yuksaltirishga, taʼlimning zamonaviy mexanizmlarini yaratishga, yoshlarning maʼnaviy madaniyatida kognitivlikni hamda shaxs, jamiyat, davlatning obyektiv imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Abulqosim Firdavsiyning musulmon Sharqi falsafiy taʼlimoti tarixida tutgan oʻrni va rolini tadqiq etish, ijtimoiy, madaniy-maʼnaviy hayotda oʻzining kimligini anglash, Vatanini yuksaltirish, xalqni tarixini ommalashtirish kabi gʻoyalarning bugungi kundagi falsafiy ahamiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida maʼnaviy-axloqiy tarbiya tizimini yanada boyitish, taʼlim-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy yoshlarning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan milliy-maʼnaviy qadriyatlarni yanada rivojlantirish, mantiqiy-falsafiy mushohadalarini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega boʻlib bormoqda. Xususan, Abulqosim Firdavsiyning hayoti va ijodi, maʼnaviy merosini oʻrganish, inson kamolotining sadoqat, sabr-toqat mezonlari, jamiyat taraqqiyotining mazmunli asosi sifatida jamiyatning tabaqalanish tizimida ziyolilarning mavqeini oshirish haqidagi dunyoviy qarashlarini oʻrganishga boʻlgan zarurat yanada ortib bormoqda.

Yangi Oʻzbekistonda Sharq Uygʻonish davri mutafakkirlarining buyuk xizmatlarini eʼtirof etish, yosh avlod ongiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirish, zamonaviy muammolarga oqilona munosabatda boʻlishga qodir yetarli darajada madaniyatli shaxsni tarbiyalashga oid keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. “Avvalambor, Yangi Oʻzbekiston strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi boʻladigan tarixiy-maʼnaviy omil, yaʼni bizning eng katta boyligimiz – xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati mavjudligidir. Jahon hamjamiyati tomonidan keng eʼtirof etilayotgan ushbu ilmiy-maʼnaviy meros dunyo madaniyati va maʼnaviyati taraqqiyotiga bebaho hissa boʻlib qoʻshilgani maʼlum. Aynan ana shu omil Yangi Oʻzbekiston poydevorini yaratishda, ilm-fan, maʼnaviy va madaniy faoliyat, taʼlim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos boʻlmoqda”<sup>1</sup>. Ayni shu maʼnoda, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida keltirilgan axloqiy ideallarning bugungi kunda odil fuqaro, insonparvar va vatanparvar fazilatli komil insonni tarbiyalashdagi rolini tahlil etish, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “Oʻzbekiston”, 2021. – Б.34-35.

qaror toptirish, kambag'allik va savodsizlikni tugatishda muhim omil ekanligini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, shuningdek, 2021 yil 18 yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** X asr va XI asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotida o'zgarishlar, ilm-fan sohasidagi yutuqlar hamda yashab ijod qilgan allomalarning faoliyatlarini o'rganish borasida jahonning yetakchi ilmiy markazlari va olimlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, G'arbiy Yevropalik olimlardan I. Vullers, V. Djons, M. Lamsden, S. Landauer, T. Makan, J. Mol, F. Rozenberg, J. Koyadjilarning tadqiqotlarida X-XI-asrlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, Abulqosim Firdavsiyning hayoti va ijodi, ma'naviy merosi, "Shohnoma" asarining mintaqa tarixi va madaniyatida tutgan o'rni masalalariga e'tibor qaratilgan<sup>2</sup>. Xususan, tadqiqotchilar I. Orbeli, A. Romaskevich, K. Traver, M. Osmanova "Shohnoma" dostonning nafaqat jahon adabiyotidagi o'rnini, balki asosiy jihatlarini, uning tarixiy ahamiyatini hamda dostonda mifologiya

---

<sup>2</sup> Vullers J.-A. Chrestomathia Schahnamiana... Bonnae, 1833. [Сводное издание — хрестоматия ранее опубликованных фрагментов с комментарием и словарем]; Lumsden M. The Shah Nainu Being a Series of Heroic Poem of the Ancient History of Persia, from the Earliest Times... by the Celebrated Abool Kousim i Firdousee of Toos, in eight volumes. Vol. first. Calcutta, 1811; Cannon, Garland H. (1964). Oriental Jones: A biography of Sir William Jones, 1746—1794. Bombay: Asia Pub. House Indian Council for Cultural Relations; Atkinson J. The shah name of the Persian poet Firdausi translated and abridged in prose and verse, with notes and ill striations; Coyajoe C. st dies in shahnameh- Bombay, 1939; Francisrek Machalski. Firda si I jego «Shah-name». - Krakow. 1970; Macan T rne. The a Shah-Nameli: An heroic poem. tta. 1829; Vol.I. CalkNoedeker Th. Das iranische nationalepos. Cr dris. Der iranischen philology. B.II, straseb rg. 1896-1904; Pertsch W. Verzeichniss der persischen handschr; ften der Königlichen Bibliothek z - Berlin. 1988; R garli vitlorio. K k il Montanaro poema persiano tradotto da. Bologna. 1891; Sehack A.F. v. Heldesagen des Febda si. 3 a fige. St ttgart. 1877; The Shahnama of Firdausi. Done into English by. Vol.I-IX. London. 1905-1923; Turner Macan. The Shah Nameh: An Heroic Poem... by Abool Kasim Firdousee... vol. I—IV. Calcutta, 1829; Mohl J. Le Livre des Rois par Abou'l Kasim Firdousi, public, traduit et cominente par.. . Paris, t. I (1838), t. II (1842), t. III Д846), t. IV (1855), t. V (1866), t. VI (1868), t. VII (1878).

o'rganilishini tahlil qilganlar<sup>3</sup>. Z. Safo, C. Nafisi va J. Misgar-Najod "Shohnoma" dagi axloqiy masalalar bilan shug'ullanganliklarini alohida qayd etish mumkin<sup>4</sup>.

MDH mamlakatlari olimlari V. Bartold, Ye. Bertels, I. Braginskiy kabi ko'plab olimlar o'z ilmiy ishlarida dostonning Markaziy Osiyo halqlari tarixini o'rganishdagi roli va shoir ijodidagi ayrim axloqiy tushunchalarga to'xtalib o'tganlar<sup>5</sup>. Firdavsiy g'oyalarining davri va turli jihatlariga bag'ishlangan A. Bogoutdinova, M. Dinorshoyev, A. Muxammadxodjaye, A. Kurbonmamadov va F. Tursunzoda tadqiqotlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin<sup>6</sup>. Shoir va mutafakkir Firdavsiy dunyoqarashi va falsafiy masalalarini o'rganishda M. Radjabovning "Firdavsiy va zamonaviylik" asari qimmatli manba hisoblanib, unda olim falsafa bilan birga Firdavsiyning axloqiy g'oyalarini ham tadqiq etgan<sup>7</sup>. Firdavsiy va uning "Shohnoma" dostonini o'rganishda yana bir muhim tadqiqot sifatida Sotim Ulug'zodaning asarlarini qayd etish mumkin<sup>8</sup>. Firdavsiy ijodini o'rganishga hissa qo'shgan olimlardan biri A. Choriyev<sup>9</sup> hisoblanadi. U Sotim Ulug'zoda qalamiga mansub Dostonhoi "Shohnoma"<sup>10</sup> ("Shohnoma" afsonalari) va "Firdavsiy" asarlarini tahlil qilgan.

Yurtimiz olimlaridan tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar e'tiborga molikdir. Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub "Shohnoma" dostoni uch jildan iborat bo'lib, kitobning birinchi jildi o'zbek tiliga Shoislom Shomuhamedov, ikkinchi jildi Hamid G'ulom, Nazarmat va Jumaniyoz Jabborovlar tomonidan tarjima qilinib, nashr ettirilgan<sup>11</sup>. Mustaqillik yillarida "Shohnoma" dostonni o'zbek tiliga tarjima qilgan Hamidjon Xomidiyning alohida hissasi bo'lib, muallif "Shohnoma" dostoniga bag'ishlangan bir qancha asarlar ham yozgan, unda muallif dostonni adabiy nuqtai nazardan tahlil etgan. Ushbu muallif qalamiga mansub asarlardan biri "Shohnoma shuhrati"<sup>12</sup> hisoblanib, unda dostonning madaniy

<sup>3</sup> Орбели И. Шахнаме. Фердовси, 934-1934. Л., 1934 с. 1-11; Ромаскевич А. А. Очерк истории изучения Шахнаме. -М.: с.13-50; Тревер К. В. Сасанидский Иран в Шахнаме. Там же. с. 177-196; Османов М. Н. О. Фирдавси жизнь и творчество. -М.: 1959.

<sup>4</sup> Сафо З. Хамасасарос дар Ирон. - Тегеран 1954. (На перс. Языке); Нафиси С. Чанд сохан дар барае Фирдавси. // Паеме нав. 1948, - №5; Мисгар-Наждо Дж. Рисолате бузурге Фирдавси дар назме Шахнаме.// Ашна. № 10, 2006 г.

<sup>5</sup> Бартольд В. В. К истории персидского эпоса Соч. -М.:1971 Т.7 С. 383-408; Бертельс Е. Э. Абу-л-Касим Фирдоуси и его творчество. - Л.-М.: Изд-во Акад. наук СССР, 1935. — 72 с.; Брагинский И.С. Из Истории персидской и таджикской литературы. -М.:1972. - 524 с.

<sup>6</sup> Богоутдинов А.М. Очерки по истории таджикской философии. - Душанбе, 1961; Диноршоев М. Фалсафаи бостони тоҷик. Фалсафа.Т.1. - Душанбе, 1997; Турсунзаде Ф. Идеалҳои эстетикаи Фирдавси. // Садои Шарк. 1995. № 1-3. Махмуд Махди Домғони. Чилваҳои дини дар «Шохнома» нашриёти Донишқадаи Илохӣёт ва маориф исломии Машхад. № 19,1355; Курбонмамадов А. Эстетика Абулкасима Фирдавси. -Ташкент, 2010; Акад. наук Респ. Таджикистан, Ин-т философии, политологии и права им. А. Баховаддинова. - Душанбе, 2015. - 37 с

<sup>7</sup> Раджабов М. Фирдоуси и современность (Анализ мировоззрения). - Душанбе, 1976. - 136с.

<sup>8</sup> Улуғзода, Сотим. Достонҳои «Шахнама». -Душанбе: Маориф, Кит. I, 1975; Сотим Улуғзода: Фирдавси. Душанбе, "Адабиёти Бачагона", 2017 С. 280

<sup>9</sup> Чориев А.Д. Драматургияи Сотим Улуғзода // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата филологических наук. -Душанбе.: 2000.- 26 с..

<sup>10</sup> Улуғзода, Сотим. Достонҳои «Шахнама». -Душанбе: Маориф, Кит. I, 1975.

<sup>11</sup> Шохнома: сайланма / А. Фирдансий: нашрга тайёрлончи ва насрий баёни таржимони Ҳ.Ҳомидий, масъул муҳаррир Ж.Мухаммад. - Тошкент: Алишер Навоӣ номидаги Ўзбекистон Мқллий кутубхонаси нашриёти. 2012. — 188 б.

<sup>12</sup> Хамиджон Хомидий. Шохноманинг Шухрати. - Тошкент: Шарк, 2005. -245 б.

makoni va uning musulmon Sharqiga ta'siri to'g'risida fikr yuritilgan. F. Muxitdinova "Shohnoma" dostonida tasvirlangan siyosiy tizimni tahlil qilib, "Avesto" va "Shohnoma" dostonida berilgan ma'muriy-siyosiy tizimni qiyosiy jihatdan yoritib bergan<sup>13</sup>. Faylasuf olimlardan G. Navruzova, R.T.Shodiyev, M.Qodirov, H. Salomova, A.Huseynova, N.Safarova, G.Mahmudova, M. Pardayeva, O. Sharipova kabilarning tadqiqotlarida Abulqosim Firdavsiyning IX-XI asrlarda Markaziy Osiyo falsafiy tafakkur tarzi, ilm-fan evolyutsiyasi, madaniyati tarixiga qo'shgan hissasini o'rganishda, ma'lum ma'rifiy qimmatga egaligi va fundamental ta'siri mavjudligi haqida xulosalar qilish mumkin<sup>14</sup>.

Qayd etilgan tadqiqotlarda Sharq mutafakkirlari, jumladan Abulqosim Firdavsiyning ilmiy merosi bilan bog'liq ba'zi bir masalalar o'z ifodasini topgan. Biroq, ularda ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tanqidiy fikrlar ustuvorligini ko'rsatmoqda. Abulqosim Firdavsiyning ilmiy merosi hamda "Shohnoma" asaridagi falsafiy ta'limotlar tahlili, ijtimoiy-falsafiy mohiyatini o'rganish borasida hozirgacha maxsus izlanishlar yetarlicha olib borilmagan. Shu bois mazkur dissertatsiyada Abulqosim Firdavsiyning inson kamoloti haqidagi falsafiy ta'limotining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati, inson va uning hayoti masalalari, gumanistik tamoyillarga asoslangan komillik haqidagi qarashlari muhim omil sifatida talqin etiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Abulqosim Firdavsiy falsafiy ta'limotining asosiy g'oyalarini "Shohnoma" dostoni asosida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

X-XI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning Abulqosim Firdavsiy qarashlariga ta'sir etgan falsafiy omillarini tadqiq etish;

X-XI asrlarda Markaziy Osiyo halqlari ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarzida "Shohnoma" dostonini roli va ahamiyatini asoslab berish;

Abulqosim Firdavsiy falsafiy konsepsiyasi shakllanishining nazariy-metodologik omillari va g'oyaviy manbalarini aniqlash;

<sup>13</sup> Мухитдинова Ф. Сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихи. Олий ўқув юртлари ҳуқуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалар учун дарслик. - Тошкент 2012. -304 б.

<sup>14</sup> Negmatovna N. G. Science of Farosat //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4.– №.3.–С.64-70.;Шодиев Р. Суфизм в духовной жизни народов Средней Азии (IX-XIII вв.): Автореф.дис.док.филос.наук. – Тошкент,1993. – 41 с.; Қодиров М.Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури (ўрта асрлар). Тошкент: ТДШИ, 2010.–176.; Salomova H. Ислом илмий-маънавий меросининг назарий асослари //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 20. – №. 20; Хусейнова А. А. Среднеазиатский ренессанс и Абдурахман Джами //ББК 65.34. 13 (2Рос–4Кем). – 2016. – Т. 355.; Safarova N.O. "Sharq mutafakkirlarining oila to'g'risidagi qarashlari"// Студенческий вестник, 18-10 (2020): - С.55-57.;Махмудова Г.Т. Историко-философский анализ учения зороастризма: (на материалах "Авесты"): Автореф.дис.док.филос.наук. - Ташкент, 2012. -46 с.; Pardayeva M. D. Yangi O'zbekiston: ajdodlarimizning boy merosi va qo'shnichilik munosabatlari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 7. – С. 371-378.;

“Abulqosim Firdavsiy falsafasidagi uch asosiy g‘oya” konsepsiyasining mohiyatini ochib berish;

jamiyatning axloqiy asoslarini, hokimiyat tabiati, universal aql, insonning jamiyatdagi faoliyatini falsafiy tadqiq etish;

Abulqosim Firdavsiy va uning zamondoshlari qarashlaridagi mushtaraklik va tafovutlarni falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va estetik masalalar tahlili orqali ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Abulqosim Firdavsiyning ma’naviy merosi, xususan, “Shohnoma” dostoni tanlab olingan.

**Tadqiqot predmeti** Abulqosim Firdavsiyning falsafiy qarashlari asosida inson kamoloti haqidagi g‘oyalarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy-falsafiy tahlil etish bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, dialektik va sinergetik tahlil, germenevtika kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Firdavsiyning musulmon Sharqi falsafiy ta’limoti tarixida tutgan o‘rni va roli nazariy va uslubiy jihatdan aniqlanib, Abulqosim Firdavsiy falsafiy qarashlari shakllanishining tarixiy-siyosiy shart-sharoitlardagi ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotda o‘zining kimligini anglash va shonli tarixni tiklashga intilish kabi umumiy va dinni ideallashtirmaslik, Vatanini yuksaltirish, xalqi tarixini ommalashtirish kabi farqli jihatlari ochib berilgan;

“Shohnoma”da keltirilgan falsafiy va diniy e’tiqodlarning qadimiy afsonaviy e’tiqodlarda ilgari surilgan xalqning ko‘p asrlik tarixi, urf-odat va an’analari, qahramonlik ruhi, voqea va hodisalari bilan qayta tiklashdagi roli, diniy ta’limotlarning aql-zakovat, mehr-oqibat, xayrixohlik, kabi eng yaxshi fazilatlarni ulug‘lash, badxulqlikni qoralashga oid talqini asoslab berilgan;

Abulqosim Firdavsiyning ijodi, hayoti va faoliyati davridagi real voqealar orqali ta’limotining tuzilishi konsepsiyasi aql, ezgulik, antropologik va ijtimoiy g‘oyalarining vatanni ulug‘lash, millat farzandlarini vasf etish, markazlashgan davlat qurishga chaqirish, mehnatni tarannum etib, adolatsizlik, munofiqlikni qoralash tamoyillarining ahamiyati “Abulqosim Firdavsiy falsafasida uch asosiy g‘oya” tushunchasi asosida aniqlashtirilgan;

“Shohnoma” dostoni asosini tashkil etuvchi axloqiy ideallarning bugungi kunda odil fuqaro, insonparvar va vatanparvar fazilatli komil insonni tarbiyalashdagi roli aniqlanib, ushbu qadriyatlarning hozirgi Uchinchi Renessans sharoitida jamiyatda estetik prinsiplarni targ‘ib qilishda tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish, kambag‘allik va savodsizlikni tugatishda muhim omil bo‘lishi sababli dolzarb ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Abulqosim Firdavsiyning ilg‘or ijtimoiy-falsafiy qarashlari falsafiy tahlilga muvofiqligi, uning ijodi mantiqiy tuzilishga ega ekanligi, falsafa tarixi rivojiga munosib hissa qo‘shganligi manbalar tahlili asosida ochib berilgan;

tadqiqot ma'lumotlari umumlashtirilib, nazariy xulosalar asosida "Firdavsiy falsafasida uch asosiy g'oya" konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

Firdavsiy ma'naviy merosining ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish milliy mentalitetimizga turli yot g'oya va qarashlar ta'sirining oldini olishda, yoshlarimizning ma'rifiy, madaniy va ilmiy salohiyatini yuksaltirishda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar birinchi manbadan olinganligi, yondashuv, uslub va usullar to'g'ri tanlanganligi, ilmiy ma'lumotlarning rasmiy va ishonchli dalillardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokamadan o'tganligi, milliy hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan vatanni ulug'lash, millat farzandlarini vasf etish va shu orqali ularni birlikka, markazlashgan davlat qurishga chaqirish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va tinchliksevarlikni madh etish, ezgulik, olijanoblik, halollik, mardlik, mehnatni tarannum etib, qonli urushlar, yovuzlik, jabru zulm, adolatsizlik, munofiqlikni qoralashga qaratilgan ma'naviy targ'ibot ishlarida, madaniy va ijtimoiy hayot qurilishini tadqiq etishda hamda zamonaviy yoshlarda intellektual fazilatlarni, ma'naviy-axloqiy rivojlanishni shakllantirishda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan musulmon Sharq ma'naviy merosi, davlat va jamiyatni rivojlantirish, yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, buyuk mutafakkirlarning ilmiy va badiiy merosini o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish hamda ularning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini hayotga keng tadbiiq etish bilan shug'ullanadigan Yoshlar ishlari agentligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi va ularning bo'limlari ma'naviy-ma'rifiy dasturlarida, ijodiy muassasa va assotsiatsiyalar faoliyatida samarali qo'llanishiga, ta'lim muassasalarining o'quv-metodik ta'minotini yangilash faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asaridagi falsafiy ta'limotlar tahlili mavzusini tadqiq etish davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

Firdavsiyning musulmon Sharqi falsafiy ta'limoti tarixida tutgan o'rni va roli nazariy va uslubiy jihatdan aniqlanib, Abulqosim Firdavsiy falsafiy qarashlari shakllanishining tarixiy-siyosiy shart-sharoitlardagi ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayotda o'zining kimligini anglash va shonli tarixni tiklashga intilish kabi umumiy va diniy ideallashtirmaslik, Vatanini yuksaltirish, xalqi tarixini ommalashtirish kabi farqli jihatlariga oid nazariy xulosa va umumlashmalardan O'zbekiston

Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi Ustavining 2022-yil 20-maydagi 278-son “d” bandida belgilangan asosiy maqsadlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2022 yil 26 dekabrda 01-13/4496-son ma’lumotnomasi). Natijada, ilmiy tadqiqot asosida olingan ilmiy ma’lumotlar va ularning tahlili natijalaridan resurs mahsulotlarini nashr ettirish, ularni ommaviy axborot vositalari va global internet axborot tarmog‘ida keng targ‘ib etishda foydalanilgan;

“Shohnoma”da keltirilgan falsafiy va diniy e’tiqodlarning qadimiy afsonaviy e’tiqodlarda ilgari surilgan xalqning ko‘p asrlik tarixi, urf-odat va an’analari, qahramonlik ruhi, voqea va hodisalari bilan qayta tiklashdagi roli, diniy ta’limotlarning aql-zakovat, mehr-oqibat, xayrixohlik, kabi eng yaxshi fazilatlarini ulug‘lash, badxulqlikni qoralashga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalar, metodologik tavsiyalar hamda amaliy takliflardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106-sonli “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G‘arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi” (2021-2022 yy) mavzuidagi fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 28-yanvardagi 04\11-401-son ma’lumotnomasi). Natijada, grant loyihasini yanada takomillashtirishga hamda Abulqosim Firdavsiyning hayoti va ma’naviy merosiga bo‘lgan qiziqishini ortishiga, yoshlarning ma’rifiy-madaniy va ilmiy salohiyatini oshirishga hamda dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan.

Abulqosim Firdavsiyning ijodi, hayoti va faoliyati davridagi real voqealar orqali ta’limotining tuzilishi konsepsiyasi aql, ezgulik, antropologik va ijtimoiy g‘oyalarining vatanni ulug‘lash, millat farzandlarini vasf etish, markazlashgan davlat qurishga chaqirish, mehnatni tarannum etib, adolatsizlik, munofiqlikni qoralash tamoyillarining ahamiyati “Abulqosim Firdavsiy falsafasida uch asosiy g‘oya” tushunchasi asosida aniqlashtirilganligiga oid ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, bibliografik to‘plamlar, kataloglar, kitob-albomlar, axborot byulletenlarida nashr etish, ommaviy axborot vositalari va internet jahon axborot tarmog‘ida keng yoritishga qaratilgan faoliyatida foydalanilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 2 fevraldagi 02/43-son ma’lumotnomasi). Natijada, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida keltirilgan beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha yoshlarga oid davlat siyosatining, shuningdek, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!” shiori ostida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va islohotlar keng jamoatchilikka mazmun-mohiyatini ochib berish imkonini bergan;

“Shohnoma” dostoni asosini tashkil etuvchi axloqiy ideallarning bugungi kunda odil fuqaro, insonparvar va vatanparvar fazilatli komil insonni

tarbiyalashdagi roli aniqlanib, ushbu qadriyatlarning hozirgi Uchinchi renessans sharoitida jamiyatda estetik prinsiplarni targ‘ib qilishda tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish, kambag‘allik va savodsizlikni tugatishda muhim omil bo‘lishiga doir xulosalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta‘minlash maqsadida efirga uzatilgan “Assalom, Buxoro”, “Ta‘lim va taraqqiyot” teleko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 14 oktyabrdagi 582-son ma‘lumotnomasi). Natijada mutafakkir ta‘limotidagi inson kamoloti g‘oyalari zamonaviy avlodni tarbiyalash, xalqimizning bebaho merosimizga hurmat tuyg‘usini shakllantirish, Abulqosim Firdavsiy qarashlarini o‘rganishda yangicha ilmiy-ommabop yondashuvni shakllantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy ish natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 143 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsion tadqiqotning oliy ta‘lim muassasi ilmiy-texnik tadqiqotlari va xorijdagi tadqiqotlar yo‘nalishi bilan o‘zaro bog‘liqligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va metodlari aks ettirilgan. Shuningdek, olingan natijalarning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va ishonchliligi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Firdavsiy falsafiy dunyoqarashini shakllantirishdagi ijtimoiy-madaniy muhit**” deb nomlangan va unda “Shohnoma” asarining o‘rganilganlik darajasi, asar yozilishning nazariy va uslubiy asoslari tadqiq etilgan va musulmon Sharq Uyg‘onish davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari tavsiflangan.

Dissertant tomonidan xorijiy, MDH va mahalliy tadqiqotchilarning mazkur mavzudagi asarlari tahlil etilgan. Yevropada “Shohnoma”dan lavhalar XVIII asrda ingliz sharqshunosi Vilyam Djons tomonidan nashr etilgan<sup>15</sup>. Matnga tanqidiy yondashishga harakat qilgan yevropalik ilk olimlardan biri M. Lamsden<sup>16</sup> 1808

<sup>15</sup> Poser, William J. and Lyle Campbell (1992). Indo-european practice and historical methodology, Proceedings of the Eighteenth Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society, -pp.214-236.

<sup>16</sup> Lumsden M. The Shah Nainu Being a Series of Heroic Poem of the Ancient History of Persia, from the Earliest Times... by the Celebrated Abool Kousim i Firdousee of Toos, in eight volumes. Vol. first. Calcutta, 1811. [Первый незаконченный опыт издания полного текста].

yilda “Shohnoma”ning yigirma yetti qo‘lyozma matnlari bo‘yicha ishlarni amalga oshirishni boshlaydi. T. Makan<sup>17</sup> o‘z tadqiqotni tayyorlash ustida ishlar ekan, 1826 yilda Parijda mazkur asarni tadqiq etishga hukumatning maxsus yo‘riqnomasini olgan fransuz sharqshunosi J. Mol<sup>18</sup> tadqiqot ishini boshlagan. Bu paytda Molning ixtiyorida Parij kutubxonalaridagi o‘ttizta qo‘lyozma mavjud bo‘lib, shu tufayli u T.Makan tomonidan qayd etilmagan ba’zi bir interpolyasiyalarni ajratib ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi. T.Makandan farqli ravishda u nafaqat “Shohnoma” matnini, shuningdek uning matnini o‘z ichiga olgan mufassal fransuzcha (nasriy) tarjimasini nashr etadi. Tadqiqotchining tahlillariga ko‘ra J.Mol matnining asosiy kamchiligi T.Makanning matnidagi kabi bir xil: har ikkala matn ham foydalanilgan materiallar va noshirlarning ular ustida olib borgan ishlari uslublari haqida o‘quvchiga ma’lumot bermaydi. J.Mol asari Parijda sakkiz tomlik sifatida nashr etilgan (1830-1878 yy). XIX asrning 70-yillarning oxirida “Shohnoma” matnini I. Vullers<sup>19</sup> tadqiq etishni boshlab, u o‘zining ikki tomlik nashrini Leydenda (1877 va 1879 yy.) chop etgan. Uchinchi jild Vullersning vafotidan so‘ng uning shogirdi S. Landauer<sup>20</sup> (1884) tomonidan nashr etilgan.

Dissertant mazkur tadqiqotda sho‘ro davri asarlarini ham tahlil etgan. F.A. Rozenberg tayyorlagan matn tanqidiy ishning dolzarbligiga ko‘ra G‘arbiy Yevropadagi barcha asarlarni ortda qoldiradi. F. Rozenbergning qo‘lyozmasi S. Oldenburg raisligidagi taniqli sobiq Sho‘ro sharqshunoslari tomonidan iborat uncha katta bo‘lmagan komissiya tomonidan deyarli to‘laligicha ko‘rib chiqilgan, biroq F. Rozenbergning asari nashrdan chiqmagan.

Dissertant hind olimi J. Koyadji tomonidan nashr etilgan Firdavsiyning nazmini o‘rganish bilan bog‘liq alohida muammolar bo‘yicha bir qator maqolalarni tahlil etgan<sup>21</sup>. Mazkur kitobda mavjud bo‘lgan tadqiqotlardan diqqatga eng sazovor bo‘lgani “Firdavsiy ilohiyoti va falsafasi” bo‘lib, unda muallif Firdavsiyning qadimgi Eron adabiyoti bilan yaqindan tanish bo‘lganligini ishonchli tarzda isbotlaydi.

Dissertantning ta’kidlashicha, “Shohnoma”ning rus tilidagi ilk tadqiqoti S. Nazariyansning qalamiga mansubdir<sup>22</sup>. “Shohnoma”ning tavsifini o‘z ichiga qamragan Sharqiy Eron qabilalarining epik afsonalarini ko‘rib chiqilishini I. Zinovev amalga oshirgan<sup>23</sup>. V. Rozen<sup>24</sup> va V. Bartoldning<sup>25</sup> Firdavsiyning

<sup>17</sup> Turner Macan. The Shah Nameh: An Heroic Poem... by Abool Kasim Firdousee... vol. I—IV. Calcutta, 1829. [Первое европейское издание полного критического текста «Шахнаме» с введением].

<sup>18</sup> Mohl J. Le Livre des Rois par Abou’l Kasim Firdousi, publie, traduit et cominente par... Paris, t. I (1838), t. II (1842), t. III (1846), t. IV (1855), t. V (1866), t. VI (1868), t. VII (1878). [Полное издание текста с французским прозаическим переводом en regard и научным историко-литературным введением].

<sup>19</sup> Vullers J.-A. Chrestomathia Schahnamiana... Bonnae, 1833.

<sup>20</sup> Firdusi Schahname, Leyden, 1884

<sup>21</sup> Соуајсе С. Studies in Shahnameh.m Bombay, 1939

<sup>22</sup> Назариянц С. Абул-Касим Фердоуси Тусский, творец Книги царей, известной под названием «Шахнаме»...Сочинение Доктора Вост. Словесности...Книжка 1. Казань, 1849. Первая (не считая публицистической статьи Мирзы Казембека «Мифология персов по Фердоуси» — «Северное обозрение», т. III, стр. 1—12, 1848 г.)

<sup>23</sup> Зиновьев И. Эпические сказания Ирана. Рассуждение, написанное для получения степени магистра... СПб., 1856, стр. 125

<sup>24</sup> Розен В. Р. К вопросу об арабских переводах «Худай-Намэ». Сб. «Восточные заметки» (фак. Вост. яз. СПб. ун-та). СПб., 1895.

manbalari bo'yicha yozgan asarlari o'z qiymatini yo'qotganicha yo'q. "Shohnoma"da bayon etilgan moddiy madaniyat elementlari F.A.Rozenbergning "Fors milliy epopeyasida sharob va ziyofatlar haqida"<sup>26</sup> asarida tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada shuningdek, "Shohnoma" dostonini o'rgangan tojik yozuvchilari ham qayd etiladi. Buyuk tojik adibi va olimi S.Ayniyning "Firdavsiy va uning Shohnomasi haqida" nomli asarida muallif Sharq mamlakatlarida hozirgi kunga qadar keng tarqalgan dostonning yaratilishi haqidagi afsonalarning tarixiy asosga ega emasligini to'laligicha isbotlaydi<sup>27</sup>.

Dissertant tomonidan o'zbekistonlik tadqiqotchilardan Hamidjon Xomidiy ishlari ham tahlil etilgan. Mazkur muallif qalamiga mansub "Shohnomaning shuhrati" asarida dostonning madaniy makoni va uning musulmon Sharqiga ta'siri haqida fikr yuritadi. Hamidjon Xomidiyning keyingi "Avestodan Shohnomaga"<sup>28</sup> asarida Avestoning Shohnoma bilan aloqasini va dostonda keltirilgan zardushtiylik an'analari va marosimlarni tahlil qiladi. Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostonini o'rgangan navbatdagi mahalliy olimi F.A.Muxitdinovadir. U "Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi" darsligining muallifi hisoblanib, unda muallif tomonidan "Shohnoma" dostonida bayon etilgan siyosiy tizimlar tahlil etilgan. Muallif "Avesto" va "Shohnoma"da keltirilgan ma'muriy va siyosiy tizimni qiyosiy tahlilini amalga oshirgan. U.Karayev o'zining "Qadimgi adabiy yodgorliklarning ba'zi namunalari haqida"<sup>29</sup> maqolasida "Shohnoma" dostonining ba'zi adabiy qahramonlari, fors-tojik va o'zbek adabiy aloqalari tarixi namunalari ko'rib chiqadi.

Ikkinchi paragrafda Eron va Turon xalqlarining eng mashhur dostoni "Shohnoma"ning muallifi Abulqosim Firdavsiyning hayoti va ma'naviy merosi tadqiq etilgan. To'liq ism – Hakim Abulqosim Firdavsiy Tusiy ( *حكيم ابوالقاسم* ) Firdavsiy o'zining bolaligi va yoshligini a'lo darajada o'tkazib dehqon madaniyatiga asosan tarbiyalangan. Barcha dehqonlar kabi shoir yetarlicha ta'lim olib, dariy va fors tilidan tashqari xalifalikning tili bo'lgan arab, shuningdek, ajdodlar adabiyoti, madaniyati va tarixining manbasi bo'lgan pahlaviy tillari bilan tanish edi.

Dissertantning fikricha, "Shohnoma"ni tuzishda Firdavsiy moliyaviy ko'makni Somoniy amir Nuh bin Mansurdan olgan. Somoniylar "Shohnoma" bilan qiziqib, uni o'tmish va qadimgi an'analar tarixini tiklaydigan asar hisoblashgan. Biroq, XI asrning boshida somoniylar hukmronligi tanazzulga uchradi. Xuroson va Movarounnahr tashqi dushmanlar tomonidan ikki qismga bo'lindi. Bu holat Firdavsiy uchun to'satdan zarba bo'ldi. Uning hayoti fors an'analari, marosimlari

<sup>25</sup> В.В. Бартоль д, К истории персидского эпоса (ЗВОРА О , т . XXII, вып. III—• IV, 1915).

<sup>26</sup> Розенберг Ф.А. О вине и пирах в персидской национальной эпосе / Ф.А.Розенберг. - Пг. : Тип. Рос. акад. наук, 1918. - 375-394 с. ; 31 см

<sup>27</sup> Айни, Садрин. Дар бораи Фирдавси ва Шохномаи у. Ленинград-Сталинабад, 1940. [На таджикском языке латинизированным алфавитом]

<sup>28</sup> Хамиджон Хомидий. Авестодан шохномага. Шарқ, 2007, С.320

<sup>29</sup> Караев У. Энг қадимий адабий ёдгорликлар айрим намуналари ҳақида //международный журнал "Искусство слова". - 2022. - Т. 5. - №. 5.

va madaniyatiga katta qiziqish davriga to'g'ri keldi. "Shohnoma"ga ko'ra Firdavsiy o'zining fors tilidan tashqari shuningdek arab tili va pahlaviy tillarini mukammal darajada bilar edi. U fors va arab adabiyoti, tarix, ilohiyot, hikmat (falsafa)ni yaxshi bilar edi. Unda shoirning Hakim degan faxriy ismi Firdavsiyning buyuk olim darajasiga yetganligi va Firdavsiy bu imkoniyatdan fan bilan shug'ullanishda foydalanganligidan, uning o'sha davrning rasmiy fanlarini maktab va madrasada o'rganganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Firdavsiyning 28 yoshda ekanligida uning bolalaridan biri tug'ilib, uning 999 yilda 37 yoshda Firdavsiy 65 yoshda ekanligida vafot etganligi ham ma'lum.

Bu yerda Abulqosim Firdavsiyning hayoti va faoliyati bizning davrimizda jiddiy o'rganilganiga e'tibor qaratish o'rinli. Uning "Shohnoma"si to'qqiz jildda ikki marta nashr etilgan. Mashhur tojik yozuvchisi Sotim Ulug'zoda "Shohnoma" ning bir qancha hikoyalarini tarjima qilib, yosh kitobxonlarga taqdim etgan. Firdavsiyning shuhrati va uning "Shohnamosi" ning obro'si abadiydir. Hakim Firdavsiy musulmon Uyg'onish davridagi eng bardoshli va taniqli shoirlaridan biri bo'lib, ko'pchilik uni musulmon Uyg'onish davridagi eng yaxshi va eng buyuk shoiri deb biladi. Firdavsiyning she'rlari asrlar davomida saqlanib kelgan va Firdavsiyning "Shohnoma"si Eron va Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatida universal va ta'sirchan asardir. Firdavsiy asarlari ko'plab Sharq shoirlari uchun namuna bo'lgan.

Musulmon Uyg'onish davri madaniyati birinchi navbatda feodal munosabatlarning jadal rivojlanishi va mahalliy mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq, degan xulosaga keldik. U yangi davr ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllangan, shuningdek, Uyg'onish davri madaniyati shahar madaniyatining o'sishi, shaharning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rolining kuchayishi bilan bog'liqligini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Firdavsiy maqbarasining qurilishi va Firdavsiyning 1000-yilligini nishonlash "Shohnoma"ga yangi hayot bag'ishladi.

Uchinchi paragrafda dissertant tomonidan, Firdavsiyning falsafiy dunyoqarashining g'oyaviy kelib chiqishini o'rgangan. Dissertantning ta'kidlashicha Firdavsiyning "Shohnoma"si mohiyatan 10-asr boshidan boshlab boshlangan ishlarning yakuni edi. Firdavsiyning "Avesto" bilan yaqindan tanish bo'lganligi ham inkor etilmaydi – "qadimgi Eron xalqlarining diniy, falsafiy, huquqiy, ibtidoiy ilmiy, axloqiy va estetik g'oyalarini o'ziga singdirgan eng qadimiy umuminsoniy yodgorligi". Firdavsiyning dunyoqarashiga Platon va Arastu g'oyalari kuchli ta'sir ko'rsatdi. Demak, Firdavsiyning falsafiy-estetik qarashlari asoslari tahlili shuni ko'rsatadiki, uning dunyoqarashining g'oyaviy manbalari juda boy va rang-barang bo'lgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Shohnomada keltirilgan afsonaviy, falsafiy qarashlar va diniy e'tiqodlar**" deb nomlangan bo'lib, unda Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida berilgan afsonaviy, diniy va falsafiy ta'limotlar ko'rib chiqilgan. "Shohnoma" eposi jahon madaniyati durdonalaridan biri bo'lib, uning mifologik qahramonlarida Vatanga muhabbat, shaxsga hurmat,

yuksak insoniy axloq, fikr va adolat pokligi, vijdon va halollik, vatanparvarlik va umuminsoniy insonparvarlik g'oyalari mujassam.

Abulqosim Firdavsiy dindor, iymonli, ammo mutaassib emas edi. Mutafakkir shoir Firdavsiy islom dinini ideallashtirishni emas, balki o'z Vatanini yuksaltirish, xalqi tarixini ommallashtirishni o'z oldiga asosiy vazifa etib belgilagan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Firdavsiy ajoyib kult she'rlarini yaratishga, o'tmishdagi an'analarga asoslangan mifologik obrazlar asosida, buyuk mifologik obrazlarni yaratishga e'tibor qaratdi. Firdavsiy she'rida tasvirlangan mifologik obrazlar keyingi asrlarda takomillashib, rivojlanib, odamlar orzularining timsoli va umid ramziga aylandi. Darhaqiqat, uning ulug'vor ishi forslar va tojiklar milliy eposining barcha asosiy qatlamlarini o'ziga singdirib, abadiy qolishiga erishdi va Sharq adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi, shu jumladan ko'plab taqlidlarga sabab bo'ldi. "Shohnoma" olami murakkab va sirli. Va faqat ikki tamoyilning qarama-qarshiligi g'oyalarini izchil tushuntirish, Firdavsiyning inson tabiati va hokimiyat tabiati haqidagi qarashlari ideal hukmdor qanday bo'lishi kerakligini tushunishi va uning "Shohnoma"dagi asosiy xarakterli xususiyatlarini aniqlashi mumkin:

*Birinchi*dan, "Shohnoma"ning she'rlaridan birortasida ham Firdavsiyda falsafaga borliq, qadimiylik, ibtido, kenglik va mohiyatga diqqatni qaratadigan faylasuflardagi kabi yondashuv mavjud emas;

*Ikkinchi*dan, odatda Rim olimlarining sifati bilan mos keladigan faylasuf ismining boshqa holatlarda ishlatilishi faylasufning rasmiy ma'nosida emas uning egasining donishmandligi va zakovatini ko'rsatadigan umumiy sifat sifatida qo'llaniladi;

*Uchinchi*dan, Firdavsiyning fikricha, donishmandlik tafakkurning markazida joylashib Hakim Tusiy uning eng yorqin namunasi hisoblanadi.

Dissertant Firdavsiyning "Shohnoma"sida borliq va ong, inson, aql va bilim muammosi, ezgulik va yomonlikning dialektik qarama-qarshiligi muammosi juda tez-tez ko'tariladi, buyuk gumanist, mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy-estetik qarashlarini asoslab beradi. "Shohnoma"da borliq (ontologiya) masalalari alohida o'rin tutadi. Mutafakkirning dunyoqarashi tahlili shuni ko'rsatadiki, u yakkaxudolik yo'nalishini (monoteizm) izchil davom ettiradi. Shoir, albatta, musulmon edi, shuning uchun ham Firdavsiy qarashlarida Xudo cheksiz, boqiy, yaratilmagan, mukammal voqelik sifatida idrok etilgan.

Dissertantning ta'kidlashicha insonda eng muhim narsa uning aqlidir, bu uning kuch-qudratining asosi bo'lgan ijod ruhidir, inson mehnat va ezgulik uchun yaratilgan, aql va bilim insonga kuch beradi, inson yaratilish tojidir. Firdavsiy fikricha aql-idrok inson mavjudligining kvintessensiyasi, asosi, mohiyatidir. Mutafakkirning fikricha, inson tabiat sirlarini o'rganishi mumkin, dunyo bilish mumkin, insonning bilimga intilishi abadiydir. Hamma narsaning boshlanishi inson ongidir.

*"Olamda eng avval inson aqlli yaralgan. Aql qalb posbonidir. Aql yana uch qo'riqchi: til, ko'z, quloqning ustidan ham posbonlik qilguvchidir. Zero, ezgulik va*

*yovuzlik aynan ana shu uch a'zo orqali qalbgga kirib boradi*"- Abulqosim Firdavsiy.

Ekzistensializm Firdavsiyga ko'ra falsafiy ta'limot bo'lib, unga ko'ra inson yolg'iz, dunyoda tashlab ketilgan, o'zini doimo xavf ostida his qiladi, hayoti nomukammal, shuning uchun u o'zini asrash va himoya qilish uchun hikmat izlaydi.

Firdavsiy falsafasini o'rganishda, dissertant tomonidan "Firdavsiy falsafasidagi uchta asosiy g'oya" konsepsiyasi taklif etildi, axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehribonlik, halollik, bilim va donolik, jaholat va zulmni tanqid qilish, mamlakatni himoya qilish va unga muhabbat kabi goyalarga urg'u bergan holda:

1. *Vatanparvarlik* Firdavsiy qahramonlarining asosiy mezonlaridan biridir, bu mezonlar eng katta qadriyat bo'lib xizmat qiladi, buning natijasida ehtiyotkor jamiyatni saqlab qolish mumkin. Vatanparvarlik-bu hukmdor yoki shunchaki qahramon bo'lishidan qat'i nazar, qahramonlarning eng muhim fazilatlaridan biridir. Firdavsiy o'z Shohnomasida axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehribonlik, halollik, bilim va donolik, jaholat va zulmni tanqid qilish, mamlakatni himoya qilish va unga muhabbat mavzulariga katta ahamiyat bergan. Firdavsiyning fikricha, mehribonlik olijanob insoniy fazilatlardan biridir. U odamlarga bir-biriga mehribon bo'lishni va bir-biriga faqat yaxshilik qilishni maslahat beradi. Chunki har bir insonning xayrli ishi abadiydir;

